

O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning
2024 yil 20 iyundagi MMO-900 № 13 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Oilaviy tibbiyot kasb kasalliklari kursi bilan
O'quv dastur nomi	“KASB KASALLIKLARI“
O'qish turi	Mavzuli malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	M.A. Xamrakulova, X.M. Djuraeva
Siklning umumiy soati	144 kredit
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar	
 t.f.d., professor, M.A. Xamrakulova	 Katta o'qituvchi X.M. Djuraeva
Maqsad	Kasb kasalligi bo'yicha mutaxassisining professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, ularda kasallikni ilk yengil davrida tashxislash, statsionar sharoitida kasb kasalliklarini davolash maxoratini oshirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning zamonaviy nozologik shakllarini yangilash.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Tibbiyot oliy o'quv yurtlarini bitirgan birlamchi muassasalarning oliy ma'lumotli tibbiyot kadrlari (davolash, tibbiyot pedagogika yo'nalishlari) uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	Zamonaviy davolash klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va tadbiq etish ko'nikmalarini takomillashtirish. Kasb kasalliklari tizimida isbotlangan dalillarga asoslanib davolash-

	profilaktika chora-tadbirlar jamlamasi va zarur hajmni mustaqil tarzda aniqlash ko'nikmalarini chuqurlashtirish, kasb kasalliklarini yangi klinik protokollar va zamonaviy halqaro standartlar asosida tashxislashni takomillashtirish, zamonaviy dalillarga asoslangan kasb kasalliklari mavjud bemorlar, hamda ishlovchi aholi o'rtasida mehnat ish qobiliyatini tiklashda, reabilitatsiyani majmuaviy tarzda olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish, kasb kasalliklari va ishlovchi aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha yangi qaror va buyruqlar asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash.
Sikl tarkibi	1 modul. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Konsepsiyasi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, me'yoriy hujjatlar. 2 modul. Kasb kasalliklari haqida tushuncha, tarixi, kasb kasalliklari yangi tasniflari. 3 modul. Nafas olish a'zolarining kasbiy kasalliklarini zamonaviy kechuvi. 4 Modul. Fizik omillar ta'sirida kelib chiqadigan kasbiy kasalliklarning yangi mezonlari. 5 Modul. Jismoniy zo'riqishlarning zamonaviy xususiyatlari. 6 Modul. Urbanizatsiyaning salbiy oqibatlari. 7 modul. Tibbiy ko'rik va TMIK. 8 modul. OIV, OITS, profilaktikasi, diagnostikasida yangi tavsiyalar.
O'qish bazalari	O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi sanitariya, gigiena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti klinikasi: Mirzo Ulug'bek tumani, Oltin tepa ko'chasi, 325-uy kasb kasalliklari kursi xonalari.

Simulyatsion asbob/uskunalar

